



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI NUTQINI O'STIRISH
METODIKASI**

Yaqubova Gulasal

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumiyl o'rta ta'lism maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqlada Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida, nutq – bu insonning eng oliv, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanishi, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib borishi, o'quvchilarni nutqini o'stirish metodikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *nutq, jarayon, natija, vazifa, shakllantirish, o'stirish, metodika, takomillashtirish, qonun, ta'lism.*

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lism standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi kichik mifik yoshidagi o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo'lishni taqozo etadi.

Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonning eng oliv, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasini sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagagi predmetlar va hodisalarini sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So'z signalizatsiyasi, ya'ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo'lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i kiradi. Nutqning tashqi va ichki, og'zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog'lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So'zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya'ni o'zi uchun bo'lgan nutq ong? O'zini bilish, tafakkur jarayonlarida g'oyat muhim ro'l o'ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o'qish)



funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o'qish) bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u astasekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish nutq o'stirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiatini va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur. Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko'p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta'minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.

Til qonunlarning ta'limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o'qishga o'rgatishdagi usullarni to'g'ri qo'llashi (ko'rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog'ozlar bilan ishslash yo'llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo'lisch zarur.

Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi. Bola ruhiyatini ko'rsatishi, ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berishi zarur.

O'qituvchining turli fanlarni o'qitishdan maqsadi o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko'nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namunadir. O'quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo'lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berish zarur.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi». Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutqdan o'quvchiniig fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalilaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiyl aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergen javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi.



Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Uchinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O'quvchilar nutqini o'stirishning mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
3. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
5. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1-12 sonlar, 2018.